

**DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI SOHASIDAGI
HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH**

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV AKADEMIYASI
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI KAFEDRASI*

O'QITUVCHISI

NARZIYEV SHAXZODBEK ZOYIROVICH

320-GURUH KURSANTI

DO'LASHEV FAYOZBEK UBAYDULLA O'G'LI

***Annotatsiya:** Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va ularning taxlili.*

***Kalit so'zlar:** Davlat, jamiyat, qonun, jinoyat, huquqbuzarlik, boshqaruv, profilaktika.*

Bugunki kunda mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu ham bo'lsa bejizga emas prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev takidlaganidek, "Jinoyat va huquqbuzarliklarni aniqlagandan ko'ra ularni oldini olgan yaxshiroqdir" deb ta'kidlaganini ham bu sohada hali yana ko'plab islohotlar amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin. Biz bilamizki hozirgi kunda profilaktikka inspektorlariga ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda profilaktika inspektorlariga yigirma to'rta modda bo'yicha huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish vakolati berilgan, bu ham bo'lsa profilaktika inspektorlariga berilga ishonch namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz bilamizki, davlat so'zi ham jamiyat ham o'zi keng ma'noli so'z hisoblanadi, shuning uchun bu so'zlarga alohida tarif berish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman.

Davlat - jamiyatning oliy siyosiy instituti bo'lib, shu jamiyat yashayotgan mamlakat fuqarolari manfaatini himoya qilish uchun o'rnatiladi. Davlat mamlakat chegaralarini himoya qiladi, boshqa mamlakatlar bilan aloqada bo'ladi, qonunchilik bilan shug'ullanadi. Davlatning asosiy belgilaridan biri uning majbur qilish kuchiga egaligi bilan boshqa tashkilotlardan ajralib turadi. Agar fuqarolar yoki boshqa

shaxslar tomonidan qonun buzilish holatlari yoki biron-bir harakat orqali davlatga ziyon yetkazadigan harakatlarni amalga oshirilsa u shaxsga nisbatan davlat tomonidan majbur qilish kuchi yani jazo choralarini qo'llanilishini ham ko'rishimiz mumkin. Davlat va uning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, mohiyat va vazifalari haqida turlicha fikrlar mavjud. Tarixdan bizga malumki qadimgi ilk davlatlar 4 mingyilikda Nil daryosini o'zanlari bo'yida paydo bo'lganligini bilamiz. Nega aynan manashu joylarda degan savolga quydagicha javob berashadi, chunki qadimgi odamlar dehqonchilik qilishi uchun asosan suv resurslari kerak bo'lgan shuning uchun ular daryolar bo'ylariga ko'chib kelib joylashib manashu joylarda ilk shahar-davlatlar vujudga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Davlat to'g'risidagi ilk tushuncha va qarashlar mil. av. taxminan 4—3-mingyilliklarda Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoyda paydo bo'lgan. Ular asosan diniy-mifologik harakterda edi. Avesto ta'limotiga ko'ra, hokimiyat, haqiqat, adolatlilik 3 axloqiy-huquqiy asosga: ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amalga tayanadi. Davlatning vazifasi yovuzlikka qar-shi yaxshilik, tinchlik va insonlarning baxtlisaodatli hayotini ta'minlashdir. Islom dini ta'limoti bo'yicha, Allohning o'zi oliy qonun sohibi. Uning talablari, ko'rsatmalari pay-g'ambarlar orqali insonlarga yetkaziladi. Davlat boshliqlari — podsholar, xonlar xudoning yerdagi soyasi, vakili hisoblanadi.

Jamiyat - kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui. Jamiyat dagi hamma narsa moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular o'z ichiga oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlardir. Jamiyat so'zi biz bilamiz keng tushuncha bo'lib u "jamlangan", yoki "birlashgan" degan ma'nolarni bildiradi. Jamiyatda barcha insonlar birgalikda teng huquqli bo'lib, o'zaro kelishuv asosida hayot kechirishadi. Qadimdan bizga ma'lumki ilk odamlar ibtidoiy jamoat tuzimida terim-termachilik va ovchilik bilan shug'ullanib o'zaro topgan narsalarini birgalikda baham ko'rishganini ko'rishimiz mumkin hisoblanadi.

Huquqbuzarlik — sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarligi to'g'risidagi kodeksning 193-241-moddalarni o'z ichiga olgan boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik deb nomlangan bobida boshqaruv sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari belgilanganini ko'rishimiz mumkin hisoblanadi. Profilaktika inspektorlari tomonidan huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunda belgilangan profilaktikaning barcha turidan foydalangan holda mahalla hududida tinchlik va osoishtalikni taminlash chora tadbirlarini amalga oshiradi. Bunday ishlarni amalga oshirishda albatta boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi¹. Davlat va jamiyat sohasidagi huquqbuzarliklar bugun yoki kecha paydo bo'lgan narsa emas bunday huquqbuzarliklar qadimdan davlat paydo bo'lgandan boshlab vujudga kelib va hozirgi kunga qadar davom etib, hozirgi kunda bunday huquqbuzarliklarning yangidan-yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Ularni o'z vaqtida aniqlab ularga barham bermasak kelajakda bunday huquqbuzarliklar turli xildagi og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining har bir chiqishlarida sohaga mas'ul bo'lgan idoralarning asosiy vazifasi jinoyatchini topish va jazolash emas, balki jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib bergan holatlarni aniqlash, ayniqsa tizimli muammolar bilan ishlashga alohida urg'u qaratishni ko'p bora ta'kidlab o'tgan². Davlatimiz rahbarining doimiy diqqat markazida turgan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.05.2014 yildagi O'RQ-371-son

² Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan murojatnomasi

www.tadqiqotlar.uz

borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu borada mavjud muammolar va ularni hal etish masalalari Prezidentimiz raisligida 15 noyabr kuni o'tkazilgan videoselektorda ham atroflicha muhokama qilindi.

Xulasa qilib shuni aytilish joizki, hozirgi kunda mamlakatimizda huquqbuzarliklarni oldini olish va ungan imkon bergan shart-sharoitlarni o'z vaqtida va sifatli bartaraf etish borasida ko'plab normativ- huquqqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bulardan tashqari prezidentimiz tomonidan har bir yig'ilishlarida takror va takror profilaktika sohadiga alohida etibor berishlari ham bu sohada ko'plab ishlar qilish orqali jamiyatda huquqbuzarliklarni oldini olish bu bizning muhim vazifalarimizdan ekanligini yana bir bor ko'rsatib berdi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, kasalni davolashdan ko'ra uni o'z vaqtida oldini olgan ming chandon yaxshi deb ta'kidlab o'tgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni, 01.05.2023 yildagi O'RQ-837-son
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.05.2014 yildagi O'RQ-371-son
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.09.2016 yildagi O'RQ-407-son
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2021 yildagi PF-6196-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.04.2021 yildagi PQ-5050-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.03.2017 yildagi PQ-2833-son
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.06.2022 yildagi 343-son